

Elbarsxon II



Elbarsxon II

(?-1739 yil 27-noyabr)

(1728-1739)

Xiva xoni. **Shohniyozxon** o'g'li. Uning hukmronligi davrida Xiva xonligida siyosiy ahvol keskinlashadi. 1736 yil Sherg'ozixonning katta Erg'ozisi sulton Shohobodda unga qarshi kurash boshlagan. Xonlikdagi mang'itlar va qoraqolpoqlar ham bosh ko'targan. Elbarsxon ularga qarshi kurash bilan bir qatord qo'shni davlatlar hududiga ham chopqunlar uyushtirgan. 1736 yil Elbarsxon 3 ming turkman askarlarini Chin Vakil yovmut boshchiligida Xurosonga jo'natgan. Bu qo'shin Mand tekisligi va Olatog' atrofida eronliklarning qizilboshlilar qo'shini ustidan zafar qozonib, katta o'lja bilan qaytgan. bu paytda Eron shohi **Nodirshoh** Shemaxani bosib olib Ganjada turgan edi. 1738 yil Nodirshohning o'g'li Rizoquli mirza Balxni egallab, Movarounnahrda yurish boshlagan. Buxoro xoni Abulfayzxon Elbarsxondan ko'mak so'ragan. Elbarsxon katta qo'shin bilan Buxoroga otlangan, biroq yo'lda Abulfayzxonni qizilboshlilar bilan sulh tuzganidan voqif bo'lgach, orqaga qaytgan. 1739 yil fevralda Elbarsxon o'zbek va turkmanlardan tashkil topgan qo'shin bilan Xurosonga yurish qilib, Niso va Obivard atrofini talon-toroj qilib Xivaga qaytgan. 1739 yil oktabrda Nodirshoh Buxoroni olib, Xivaga qo'shin tortgan. Tuyamo'yin, Pitnak, Hazoraspeda xivaliklar mag'lub bo'lgan. Eron qo'shini Xonqani 7 kunlik qamaldan so'ng egallagan, Elbarsxon va uning 20 ta amiri asir olingan. Nodirshoh ularni qatl ettirib, Xivaga yurish qilgan va 3 kunlik qamaldan so'ng uni bosib olgan.

2023-11-05 18:24:19